Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320860

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

zarur. Ushbu hududlardagi tadbirkorlarga moliyaviy resurslar va zarur maslahatlar taqdim etilishi kerak.

Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash: O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy aloqalarini kuchaytirish va tadbirkorlikni eksportga yo‘naltirish uchun tashqi investitsiyalarni jalb etish, xalqaro biznes tarmoqlari bilan hamkorlikni rivojlantirish zarur.

Shu tarzda, tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar nafaqat iqtisodiy o‘sishni, balki aholi farovonligini oshirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yangi innovatsiyalarni joriy etish, samarali ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Schumpeter, J. A. (1942). Capitalism, Socialism and Democracy. Harper & Row.
2. Baumol, W. J. (1990). Entrepreneurship: Productive, Unproductive, and Destructive. Journal of Political Economy.
3. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Free Press.
4. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W. W. Norton & Company.
5. Birch, D. L. (1987). Job Creation in America: How Our Smallest Companies Put the Most People to Work. The Free Press.
6. Acs, Z. J., & Audretsch, D. B. (2003). Innovation and the Growth of Cities. Edward Elgar Publishing.
7. OECD (2020). Entrepreneurship at a Glance. Organisation for Economic Co-operation and Development.
8. Teece, D. J. (2007). Explicating Dynamic Capabilities: The Nature and Microfoundations of (sustainable) Enterprise Performance. Strategic Management Journal.
9. https://lex.uz/acts/-2034719

BANK TIZIMINI INNAVATSION ISLOH QILISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNING ILMIY-AMALIY AHAMIYATI

Ismoilova Muyassar Ro‘ziqul qizi
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bank tizimini innovatsion isloh qilish jarayonida tijorat banklarini transformatsiyalashning ilmiy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va bank xizmatlarini raqamlashtirish tijorat banklarining faoliyat samaradorligini oshirishdagi asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Mualliflar bank xizmatlarining sifatini oshirish, mijozlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash masalalarini yoritadi. Shuningdek, maqolada tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi bo‘yicha xalqaro tajriba va mahalliy amaliyotlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinib, rivojlanish yo‘nalishlari taklif etilgan. Mazkur maqola tijorat banklari rahbarlari, iqtisodchilar va bank tizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: ijorat banklari, bank tizimi, innovatsion islohotlar, raqamli transformatsiya, bank xizmatlari, raqamlashtirish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish

Published: 23.12.2024
Cite this article: Ismoilova Muyassar Ro‘ziqul qizi (2024). Bank tizimini innovatsion isloh qilish sharoitida tijorat banklarini transformatsiyalashning ilmiy-amaliy ahamiyati. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320860
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Jahon miqyosida moliya bozorlarining jadal rivojlanishi, raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlarning moliya tizimiga joriy etilishi bank sohasi uchun yangi imkoniyat va chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, tijorat banklarini transformatsiya qilish jarayoni bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda raqamli iqtisodiyot talablariga moslashishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish borasidagi islohotlar doirasida tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish, zamonaviy moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, mijozlar ehtiyojlarini yanada samarali qondirish maqsadida banklar faoliyatini qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan bank - bu tijorat muassasasi bo‘lib, jismoniy va huquqiy shaxslarning bo‘sh turgan pul-mablag‘larini jalb qilish va ularni o‘z nomidan, to‘lovlilik, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi. Ba’zi adabiyotlarda bank - bu korxona deb ham izoh beriladi. Ma’lumki, bank yaxlit olingan korxona sifatida ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirmaydi. Demak bundan ko‘rinib turibdiki, bank bu pul oldi sottisi bilan shug‘ullanuvchi yaxlit bir tizim. Nafaqat oldi-sotti, balki pul saqlash va ko‘paytirish vazifalari ham bor. Albatta davlat banklari ham tijorat banklari hisoblanadi. Tijorat banklari bank tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu bankarda yig‘iladi va bu banklar huquqiy, jismoniy shaxslarga xizmatlarini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari bank tizimining Markaziy bankdan keyingi ikkinchi pog‘onasi hisoblanadi. Bank tizimi orqali bozor iqtisodiyoti sharoitida, iqtisodiyotni boshqarishning moliyaviy sohasida markaziy bo‘g‘in sifatida bo‘ladi. Bozor iqtisodiyotida hukumron mavqega ega bo‘lgan, tovar, pul muomalasini boshqarish va u orqali tushum xo‘jalik faoliyatini boshqarish muammosini olg‘a suradi. So‘ngi yillarda, —Mudis, —Standartand and Purs, —Fitch reytings kabi yetakchi reyting agentliklari O‘zbekiston bank tizimi faoliyatini barqaror deb baholamoqda. Lekin, yaxshilab e’tibor beradigan bo‘lsak bu tizim mukammal emasligini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni, innavatsion tizimni shakillantirish yoki bu tizimni butkul yangilash orqali bank tizimini isloh qilishimiz mumkin bo‘ladi. Bu degani albatta chet el bank tizimini jopriy qilish orqali amalga oshirilidi. Bu jarayonlarni yaxlit so‘z bilan —Transformatsiya so‘zi bilan atashimiz mumkin. Bu degani hozirgi vaqda joriy bo‘lib turgan tizimni butkul yangilash, tubdan isloh qilish deganini anglatadi. Chet el banklarini ustun tarafi, kredit va online tizimning yaxshi shakillanganidi. Xorijda, odiygina Rossiyani misol qilib oladigan bo‘lsak, u yerda kredit foizllari juda past, hatto 3% lisi ham mavjud. Bu esa pul aylanishini juda osonlashtiradi va bank jamg‘armasida juda katta zahira saqlanishiga olib keladi. Endi online tizimni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, hatto, kredit olish va boshqa turli xil to‘lovlar ham to‘liq online tizimga o‘tkazilgan. Bu esa haridorlarga juda qulayliklar tug‘diradi va hatto, karantin sharoitida ham ish to‘xtab qolmasligi va tibbiy hafsizlikka ham rioya qilish mumkinligini ko‘rsatadi.

Endi transformatsiyalash jarayoniga yondashadigan bo‘lsak, 2020-yil 10-dekabrda Markaziy bankda Moliya vazirligi bilan hamkorlikda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki vakillari ishtirokida uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Uchrashuv davomida tomonlar O‘zbekiston bank tizimini rivojlantirish istiqbollarini muhokama qilib, tijorat banklarini, xususan, —Asaka bank va —Aloqabankni transformatsiyalash jarayoniga alohida e’tibor qaratdilar.Hozirda mazkur banklarda o‘tkazilgan tahlillar natijalariga asoslanib, YETTB banklarni transformatsiyalash bo‘yicha ssenariylar ishlab chiqishi qayd etildi.Uchrashuvda YETTB Markaziy bankning tijorat banklari kapitallashuvini oshirish, yanada ishonchli o‘sishiga erishish va iqtisodiyotning real sektorini kreditlash sifatini

yaxshilash, shu jumladan, banklar kapitali tarkibiga xorijiy yangi investorlarni jalb etishga qaratilgan strategiyasini qo‘llab-quvvatlashi ta’kidlandi. Mazkur jarayonning muvaffaqiyati YETTBga O‘zbekiston bank tizimida har tomonlama keng ko‘lamli hamkorlikni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi, deb xabar beradi markaziy bank matbuot xizmati.

Uchrashuv yakunida tomonlar davlat ulushi mavjud banklarni xususiylashtirishga tayyorlash va transformatsiyalash yo‘nalishida samarali hamkorlik qilishga ishonch bildirdilar. Yuqorida aytib o‘tilgan uchrashuvni tahlil qilsak, bu transformatsiyalash jarayoni O‘zbekiston banklariga juda katta yutuq olib keladi. Yevropa taraqqiyot va Tiklanish bankiga to‘xtaladigan bo‘lsak, 1990-ylda 42 a’zo mamlakat hukumatlari tomonidan 10 mlrd. ekyu mablag‘ bilan tashkil etilgan. 1991-yildan faoliyat olib boradi. Shtab-kvartirasi Londonda. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida bo‘lgan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan islohotlar (davlat mulki va korxonalarini xususiylashtirish hamda monopoliyadan chiqarish; tadbirkorlikni rivojlantirish; islab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va moliya sektorlariga investitsiyalarni jalb etish; kapital bozorini shakllantirish va boshqa)ga moliyaviy yordam ko‘rsatadi va ularning jahon iqtisodiy ham jamiyatiga tezroq qo‘shilishiga ko‘maklashadi.

Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki O‘zbekistonda moliyaviy sektor va bank infratuzilmasini rivojlantirish, energetika majmui, turizmni rivojlantirish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, bozor infratuzilmasini shakllantirish, tabiiy resurslarni uzlashtirish, paxtani qayta ishlash va engil sanoatning boshqa tarmoqlarini taraqqiy ettirish kabi etti yo‘nalishda faoliyat yuritadi.

Keltirilgan malumotlarni tahlil qilib chiqsak va bu transformatsiyalash jarayoni keltiradigan foydalarni sanaydigan bo‘lsak, birinchi navbatda, kriditlar foizini qisqarishi masalasi hal bo‘ladi, ikkinchi navbatda esa, o‘zbekiston banklari ham chet el banklari singari halqaro jahon bozoriga chiqish imkoniyatriga ega bo‘ladi, uchinchisi esa o‘z valyutamiz ya’ni so‘mni qadrsizlanishini kamiytiradi, to‘rtinchisi esa iqtisodiyotni o‘sishiga katta hissa qo‘shadi, bular transformatsiyalashning eng asosiy ijobiy tomonlari

Yuqorida keltirilgan malumotlardan xulosa qiladigan bo‘lsak, agar O‘zbekiston banklari bu xorij banklari bilan hamkorlik qilib tranformatsiya jarayonini muvofaqqiyatli yo‘lga qo‘yvosa, albatta bu banklar qatoriga tez orada chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi va xalqimiz, jamiyatimiz manfatiga yanada katta hissa qo‘shgan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

6. https://uba.uz/uz/press_center/publications/3049/38249/
7. https://yuz.uz/uz/news/ettb--ozbekiston-banklarini-transformatsiyalash-jarayoni-ishtirokchisi
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yevropa_Tiklanish_va_Taraqqiyot_Banki

HUDUDDA KLASTER SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI SANOAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Alijonov Raxmatillo avazbek o‘g‘li
Farg‘ona politexnika instituti magistranti
Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. E.A.Muminova

Annotatsiya

Hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri klasterlashish jarayonidir. Klaster siyosati, hududdagi sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini yanada